

Matqosimova Mohira Erkinbek qizi

Andijon davlat chet tillari instituti nemis tili nazariyasi va amaliyoti
kafedrası o‘qituvchisi

SIMVOLIK VOSITALARNING NEMIS TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada simvolik vositalarning nemis tilidan o‘zbek tiliga tarjimasi xususiyatlari, simvolik vositalarning tarjimada so‘zma so‘z berilishi, tarjimada tushib qolishi, tarjimada qayta yaratilishi, tabiat hodisalarining tarjimada berilishi ilmiy jihatdan ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: simvolik vositalar, tarjima xususiyatlari, so‘zma so‘z berilishi, tarjimada tushib qolishi, tarjimada qayta yaratilishi, tabiat hodisalarining tarjimada berilishi.

Tarjima xalqlar millatlar o‘rtasidagi ko‘prikdir. Bu «ko‘prik» nafaqat qo‘shni xalqlar, mamlakatlar, millatlarni balki, qit‘alararo diplomatik aloqalar til orqali amalga oshirilgan ekan bunda tarjimaning o‘rni muhim ahamiyatga kasb etadi. Tarjima axborot manbalarini oshiruvchi sifatida xalqlarni bir biriga yaqinlashtiradi, ma‘naviy hayotini boyitadi, tillarning potensial imkoniyatlarining ro‘yobga chiqaradi, unga sayqal beradi. Shuning uchun ham tarjima har bir milliy madaniyat uchun doimiy extiyodir.

Tarjima tafakkurga yangi g‘oyalar, tushunchalar olib keladi. Jamiyatda yangicha munosabatlar qarashlarning qaror topishiga xizmat qiladi. Tarjima tufayli xalqlar o‘rtasida madaniy va adabiy aloqalar tobora kengayadi, mustaxkamlanadi. Tarjima xorijiy tilni o‘rganish va o‘rgatilishi uchun ham muhimdir.

Xorijiy til o‘zbek tiliga qiyoslanib o‘rganilishi natijasida ayrim til qonuniyatlarini o‘rganish osonlashadi. Nemis va o‘zbek tillari tarjima qilinib, qiyoslanib o‘rganiladi.

Shu bois tilshunoslik sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar ham yuqorida qayd etib o‘tilgan maqsadlarga yo‘naltirilgan.

Mavjud bo‘lgan ilmiy adabiyotlarning o‘rganilishi natijasida simvolik vositalarning bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish masalalari deyarli o‘rganilmaganligini ko‘rsatdi. Maqolada biz tomondan tahlil qilingan matnlarda simvolik vositalar mutarjimlar tomonidan ko‘p hollarda so‘zma-so‘z, ya‘ni asliyat ruhini saqlab qolgan holda o‘girilganligi aniqlandi. Lekin ularning tarjimada mutarjimlar tomonidan tushirib qolish hollari hamda qayta yaratilishini kabi hollari ham mavjud ekanligini ko‘rsatdi. Simvolik vositalarning olmon va o‘zbek tillarida qiyosiy o‘rganilishi hozirgi kungacha deyarli tadqiqot predmeti sifatida o‘rganilmagan.

G‘.Salomov obrazli vositalarning tarjimasi borasida shunday degan: “Rus tilida ham “cho‘chqa” so‘zi ko‘p hollarda aqlsizlik, nodonlik, befarosatlik ma‘nolarini ifodalovchi birikmalarining obrazi sifatida ko‘rinadi. Bunday hollarda ularni aynan o‘g‘irish mumkin. Ammo o‘zbek tilida baxtli, ezgu ish yoki erkalatish ma‘nolarini o‘zida aks ettiradigan obrazli asosi “cho‘chqa” so‘zidan iborat bironta ham matal yoki idioma yo‘q. Holbuki, olaylik, nemis tilida bu so‘z salbiy hodisalar obrazi bo‘lib gavdalanishi barobarida, baxt, omad keltiruvchi simvol sifatida ham gavdalanadi. Shuningdek, fransuz, ingliz va rus tillarida “cho‘chqa” so‘zi ma‘nolarida erkalash ma‘nosida keladi. Bunday vaqtlarda tarjimon o‘sha birikmalarining obrazli asoslarini o‘z tilida ana‘na bo‘lib qolgan hayvon va parrandalarining nomlari bilan almashtirishga majbur bo‘ladi.

Masalan, Balzadagi o'sha "Zdrastvuyte, moi porosyatushki!" xitobini o'zbekchaga "salom, qo'zichoqlarim!" tarzida o'girishga to'g'ri keladi. Shu zayl, fransuzcha jumladagi "cho'chqa" so'zining rus tilida "qush" bo'lib qolishi qanchalik nomatlub bo'lsa, o'zbek tilida "qo'zichoqqa" "aylanishi" shunchalik maqsadga muvofiqdir". Shu o'rinda maqol, matal va idiomalarning tarjimasiga borasida G'.Salomov quyidagi fikrni keltirib o'tgan: "Idiomatik iboralar va matallar tarjimasida birikmalar tarkibidagi ob'ektlar (tayanch nuqtalar) ayirboshlovi masalasiga befarq qarab bo'lmaydi. Tarjimada mumkin qadar birikmaning aniqroq, asl nusxa ma'nosiga yaqinroq, kontekstga muvofiqroq variantini qidirib topishga harakat qilish lozim. Mabodo haliz chiqmaydigan bo'lsa, so'zma-so'z o'girishga ham jur'at qilish mumkin ¹".

Ya.I.Resker obrazli asosga ega bo'lgan frazeologik birliklarni tarjima qilishda to'rt usulni qo'llashni o'rinli deydi:

1. "Chet tilidagi ya'ni, originaldagi obrazni butunlay saqlanishi orqali, ya'ni ushbu usulga internasoinal xarakterga ega bo'lgan: (zastvshie qotib qolgan, qotgan)metaforalar perifrazalar, maqol va matallar, qanotli iboralar shuningdek, rus tiliga ingliz va fransuz tilidan o'zlashmalar;
2. Obrazlilikning tarjimada qisman saqlanishi orqali;
3. Obrazlilikning almashtirilishi orqali;
4. Obrazlilikning tushib qolishi orqali"².

Yuqoridagilarni umumiyLashtirgan holda biz olmon shoir va yozuvchilarning asarlaridagi simvolik vositalarni o'zbek tiliga uch yo'l orqali tarjima qilinganligi aniqlanib, ularni tarjimasida quyida ko'rib chiqiladi.

Simvolik vositalarning tarjimada so'zma-so'z berilishi ko'p hollarda ularning internasional xarakterga ega bo'lganligi bilan bog'liq. Shu sababdan simvollar bir tildan ikkinchi tilga o'girilganda so'zma-so'z beriladi:

"Und wie ich diese Feuerchen durchschweife,

So find ich mich doch ganz und garz entfremdet,

Fast alles nackt, nur hie und da behemdet:

Die Sphinx schamlos unverschämt die Greife,

Und was nicht alles, lockig und beflügelt die Gfeife,

Von vorn und hinten sich im Auge spiegelt..." [Faust, S. 277]

E.Vohidov tarjimasida „**die Sphinx**“ simvoliksi so'zma-so'z tarjima qilingan:

"Gulxanlar oralab tashlayman qadam,

¹ Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. – T., O'qituvchi nashriyoti, 1983. 118 b.

² Resker Ya.I. Teoriya perevoda i perevodcheskaya praktika, M., «Mejdunar. otnosheniya», 1974. str. 161-162.

Menga bu manzara erish tuyular.

Ajab, bunda barcha yalang'och yurar,

Uyatsiz grifu **sfinkslar** ham.

Yurishar berkitmay orqayu oldin,

Oshkora ko'rsatib dumi qanotin". [Faust, 211 b.]

Gyote asarda ko'pgina mifologik obrazlarga murojaat qilgan, "die Sphinx" ham shular jumlasidan, aslida sfinks – Qadimgi Misrda gavdasi shernikiga, boshi odamnikiga o'xshatib ishlangan afsonaviy jonzod hisoblangan. Asarda sfinks – o'lim simvoli vazifasida kelgan³.

Tarjimada simvol internasional xususiyatga egaligi nuqtai nazaridan so'zma-so'z o'girilgan. Asar davomida bunday, ya'ni so'zma-so'z tarzda o'girilgan simvollar ko'pchilikni tashkil etadi.

Demak, simvolik vosita umuminsoniy xususiyat hisoblanib, tarjimada so'zma-so'z tarjima qilinib juda to'g'ri yo'l topilgan.

Xulosa, inson tomonidan qadrlanadigan xususiyatlar ko'p hollarda aniq ma'noga ega bo'lib, inson tafakkurida ijobiy his-tuyg'ular uyg'otadi, misol uchun, **die Rose, das Lamm, der Lorbeer**. Yoki bo'lmasa salbiy qarashlarni aks ettirish hollari misol uchun, **das Schwein, die Schlange** kabilarni keltirib o'tish o'rindir.

Demak, simvolik vositalarning olmon yozuvchilari tomonidan qo'llanilishi, asarning boyitishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilgan. Tarjimashunoslik sohasida bu kabi ilmiy ishlarning tobora rivojlanib, mustahkamlanib borishi obrazli vositalarning tarjima muammolari bilan bog'liq kuzatishlarning yo'lga qo'yilishi ilmiy-amaliy planda tadqiqotchilarning tadqiqot predmeti sifatida o'rganilishini tadqiq etish ishlarini keng ko'lamda olib borishni davrning dolzarb muammosi sifatida qaralsa ajab emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. – T., O'qituvchi nashriyoti, 1983. 118 b.
2. Resker Ya.I. Teoriya perevoda i perevodcheskaya praktika, M., «Mejdunar. otnosheniya», 1974. str. 161-162.
3. Goethe J. W. Faust. Aufbau-Verlag Berlin und Weimar. 1977. S. 712.
4. M.E.Umarxo'jaev. Olmon tili leksikologiyasi va frazeologiyasiyu Andijon 2010.
5. Umarxo'jaev M.E., Nazarov K. Nemischa ruscha o'zbekcha frazeologik lug'at. T.,1996.

³ Sphinx – Antike Fabelwesen, die in Ägypten als Mischgestalten aus dem Körper eines Löwen eines Mannes und in Griechenland als geflügelte Löwin mit Kopf und Brüsten einer Frau dargestellt wurden. Die Sphinx war in der griechischen Mythologie ein Todessymbol. Goethe J. W. Faust. Aufbau-Verlag Berlin und Weimar. 1977. S. 712.